



ZAXIRALAR (TOVAR-MODDIY BOYLIKLAR) HISOBI VA ULARNING INVENTERIZATSIYASI

Zaripova Sayohat Zafarovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi va auditkfedrasi assesenti

Vaxobov Abdurashidjon Bekzod o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Annotatsiya: maqolada xalqaro standartlar, moliyaviy hisobotlarda tovarmoddiy zahiralarning hisobini yuritishda me'yoriy, xuquqiy hamda uslubiy jihatdan yoritib berishni takomillashtirish xakida fikrlar va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tovar-moddiy zahiralalar, moliya bozorlari, buxgalteriya hisobining milliy standartlari, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari, iqtisodiyotni modernizatsiyalash.

Abstract: the article presents ideas and recommendations on improving the regulatory, legal and methodological coverage of inventory accounting in international standards and financial statements.

Keywords: inventory, financial markets, national accounting standards, international financial reporting standards, modernization of the economy.

Kirish

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari



mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish"[1] belgilangan.

Ushbu qarorni ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2020 yil 24 avgust 507-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to'g'risida" nizomni tasdiqlash xaqida qaror qabul qildi. PQ4611-sonli qarorning 1-ilovasining 2-bandida "Buxgalteriya hisobining milliy standartlarini MHXSga uyg'unlashtirishni hisobga olgan holda ularni takomillashtirish" belgilangan. Shu sababli yirik turdagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va korxonalarning rivojlanishini, materiallar ta'minoti, material zaxiralari va mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxini hisoblash metodologiyasini takomillashtirishni, tannarxni kamaytirishning imkoniyatlari va rezervlarini topishni, xalqaro standartlarda va tajribalarda ko'zda tutilgan ilg'or tizimlarini joriy qilishni taqozo etmoqda.

Asosiy qism

Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlashda "O'zbekiston-2030" Strategiyasida bir qator ustivor vazifalar belgilab berilgan. Unda 2030 yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish, mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilog'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish, sanoatning "drayver" soxalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishlga solish, sanoatda qo'shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va 2,5 million ish o'rinlarini yaratish, yirik korxonalar tomonidan import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va hududiy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, har bir tumanda zamonaviy texnologik sanoat zonalarini tashkil etish, to'qimachilikda ip kalavani qayta ishlash 100 foizga yetkazish hamda yuqori sifatli matoga talabni qondirish uchun 400 ming tonna su'niy va aralash tolani ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hamda qurilish materiallarini ishlab chiqarish hajmini 2 barobarga ko'paytirish va



yangi turdagi energiya tejamkor materiallarni ishlab chiqishni kengaytirish kabilardan iborat.

Ushbu belgilangan ustivor vazifalardan ko‘rinib turibdiki, sanoatda, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar ko‘rsatish sohalarida ishlab chiqarishni yanada kengaytirishda ulardagi mavjud tovar-moddiy zaxiralar, materiallar va xomashyo miqdorini oshirish hamda ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Odatda tovar-moddiy zaxiralar tushunchasi kengroq bo‘lib, uning tarkibiga ta‘minot, ishlab chiqarish va sotish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Tovar-moddiy zaxiralarga moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va respublikamizdagi buxgalteriya hisobiga oid me‘yoriy hujjatlarda berilgan ta‘rif va tushunchalarga to‘xtalib o‘tamiz.

Jumladan, “Zaxiralar” (BHXS-2) deb nomlangan buxgalteriya hisobining xalqaro standartida Tovar-moddiy zaxiralarga batafsil tushuncha berilgan va uning mohiyati to‘liq ochib berilgan. Mazkur standartning maqsadi tovar-moddiy zahiralarini hisobga olish tartibini belgilashdan iboratligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Zahiralarini hisobga olishning asosiy masalasi aktiv sifatida tan olinadigan va tegishli tushumlar tan olinmaguncha kelgusi davrlarga o‘tkaziladigan sarflar summasini aniqlashdan iborat bo‘lib, mazkur standart talablariga ko‘ra, “tannarxni aniqlash va uni xarajat sifatida keyingi tan olinishi, shu jumladan uni har qanday sof sotish qiymatigacha kamaytirilishi bo‘yicha ko‘rsatmalar beradi. Shuningdek, unda sarflarni zahiralar qiymatiga olib borishda foydalaniladigan tannarxni hisoblash formulalari bo‘yicha muhim uslubiy qoidalar keltirib o‘tilgan. Ushbu standartda tovar-moddiy zaxiraga quyidagi ta‘rif keltirib o‘tilgan: “Zahiralar: odatdagi faoliyat doirasida sotish uchun mo‘ljallangan, sotish uchun ishlab chiqarish jarayonida bo‘lgan, ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko‘rsatish jarayonida ishlatiladigan xom ashyo yoki materiallar shaklida bo‘lgan aktivlardir”.



Tovar-moddiy zahiralar tushunchasiga buxgalteriya hisobining milliy standartlarida quyidagi ta'rif berilgan: “tovar-moddiy zaxiralar - faoliyat yuritish jarayonida keyinchalik sotish maqsadida saqlab turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida bo'lgan, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlar”.

Mazkur BHMSda quyidagilar tovar-moddiy zaxiralar hisobining asosiy qoidalari sifatida keltirib o'tiladi:

tan olish paytini aniqlash, tasniflash, balans qiymatini baholash;

tovar-moddiy zaxiralar tannarxiga kiritiladigan xarajatlarni aniqlash, kelgusida xarajatlarni, shu jumladan tovar-moddiy zaxiralar qiymatini xarajat sifatida tan olish;

tovar-moddiy zaxiralar qiymatini realizatsiya qilishning sof qiymatiga qadar kamaytirish (baholash);

tovar-moddiy zaxiralarning chiqib ketishidan moliyaviy natijalarni aniqlash hamda moliyaviy hisobotda ular bo'yicha axborotni yoritib berish tartibi.

Rossiya Federatsiyasi (nizom) va Amerika Qo'shma Shtatlari (standart) qonunchiligi bo'yicha zaxiralarni hisobga olish tartibi sezilarli darajada farq qiladi: ARB 43 bo'yicha zaxiralarga kiritilgan aktivlarning ayrim turlari AQSh (USGAAP) bo'yicha zahiralar sifatida tan olinmaydi va zaxiralarni baholashda turli xil yondashuvlar qo'llaniladi. Shuning uchun transformatsiya paytida tuzatishlar sonini kamaytirish uchun bu farqlarni oldindan hisobga olinadi.

Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish tartibi bo'yicha xorijiy tajribaga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, jahonda iqtisodi rivojlangan AQSh (USGAAP)da tovar-moddiy boyliklarni hisobga olish ARB 43, 4-bo'lim “Buxgalteriya hisobi bo'yicha tadqiqotlar byulleteni zaxiralarni baholash” (Accounting Research Bulletin 43 (Inventory Pricing) bilan tartibga solinadi. Bunda tovar-moddiy zahiralar yoki inventarlarni baholashda qo'llaniladigan umumiy tamoyillar bilan tavsiflanadi hamda tovar-moddiy zahiralar hisobga olish 43-bo'limga



kiritilgan o'zgartirishlar (Zaxirlar xarajatlari, ARB 43-ga tuzatish, 4-bob) xarajatlarni shakllantirishning ayrim masalalariga oydinlik kiritadi.

Ushbu ARB 43, "Tovar-moddiy zaxiralar narxini belgilash" tartibi 4-bobidagi yo'riqnomaga ob'ektning ishlamay qolgan xarajatlari, yuk tashish, qayta ishlash xarajatlari va isrof qilingan materiallar (buzilish) ning noan'anaviy miqdorini hisobga olishni aniqlashtirish uchun o'zgartiradi. ARB 43 ning 5-bandi, 4-bob, ilgari aytilgan "... ba'zi sharoitlarda, ob'ektning bo'sh turishi, haddan tashqari buzilish, ikki marta yuk tashish va qayta ishlash xarajatlari kabi narsalar juda g'ayritabiiy bo'lib, joriy davr to'lovlari sifatida davolashni talab qiladi... ". Ushbu standart qoidasiga asosan, tovar-moddiy zaxiralar "juda g'ayri oddiy" mezoniga javob berishidan qat'iy nazar, joriy davr to'lovlari sifatida tan olinishi ko'rsatib beriladi. Bundan tashqari, ushbu standart doimiy ishlab chiqarish xarajatlarini konvertatsiya qilish xarajatlariga taqsimlash ishlab chiqarish quvvatlarining normal quvvatiga asoslanishini talab qiladi.

Tovar-moddiy zaxiralar hisobi bo'yicha Rossiya Federatsiyasi tajribasiga murojaat qiladigan bo'lsak, Rossiyada buxgalteriya hisobida PBU 5/01 "Tovarmoddiy zaxiralarni hisobga olish" nomli nizom amal qiladi.

Mazkur Nizomga ko'ra tovar-moddiy zaxiralar sifatida quyidagilarga e'tibor qaratiladi, jumladan:

xom ashyo yoki materiallar sifatida mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanadigan;

sotish uchun mo'ljallangan (tayyor mahsulot, yetkazib beruvchidan sotib olingan tovarlar);

korxona ehtiyojlarini qondirish uchun foydalaniladi.

Respublikamizda iqtisodchi olimlar tomonidan tovar-moddiy zaxiralarning mohiyati, ularni tasniflash va baholash masalalari keng o'rganilgan, jumladan A.Ibragimovning fikricha: "tovar-moddiy zaxiralar - faoliyat yuritish jarayonida foydalaniladigan hamda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish



yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida, shunigdek, ma'muriy vazifalarni amalga oshirishda foydalaniladigan aylanma mablag'lardir".

A. Karimov va boshq. asarida tovar-moddiy zahiralari ishlab chiqarish zaxiralari sifatida o'rganilgan va ularni xo'jalik yurituvchi sub'ektning ishlab chiqarish faoliyatini normal davom etishini ta'minlaydi deb o'z fikrlarini bayon etganlar.

M.Xaytboev o'zining ilmiy tadqiqotida aynan tovar-moddiy zahiralari haqida ko'plab xorijiy va maxalliy iqtisodchi olimlarning fikr-muloxazalari va ilmiy yondoshuvlarini keltirib o'tadi, masalan: Z.I.Kruglyakning fikricha, ishlab chiqarish zaxiralari tashkilot xo'jalik faoliyatining asosiy elementi hisoblanib. moliyaviy holat va iqtisodiy salohiyatni aniqlashda muhim o'rin tutadi, chunki ular aktivlar tarkibida katta salmoqqa ega.

J.Shraybfeder tomonidan zaxiralarning samarali boshqarilishi iste'molchilar talablarining qondirilishiga va sof foydaning maksimallashtirilishiga xizmat qiladi, deb ta'kidlaydi. N.Raxmonov tovar-moddiy zaxiralari tarkibiga to'xtalib, ular tarkibiga quyidagilarni kiritgan: tovar-moddiy zaxiralari - kapital doiraviy aylanishining birinchi bosqichidagi moddiy aktivlar, ya'ni hali ishlab chiqarish jarayoniga berilmagan va o'zlarining natural-moddiy shaklini to'liq saqlab turgan ishlab chiqarish zaxiralari; asosiy podaga o'tkazish yoki sotish maqsadida o'stirilayotgan va boquvdagi chorva mollari, ishlab chiqarishdan olingan tayyor muhsulotlar; sotish uchun mo'ljallangan tovarlar; tugallanmagan ishlab chiqarish, yarim tayyor va ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlardan iborat".

A.Achilovning ta'kidlashicha "ishlab chiqarish korxonalarining aylanma mablag'larning tarkibidagi moddiy aktivlar, ya'ni korxonalarining aynan bir mahsulot turlarini yaratish xususiyatlaridan kelib chiqib, xom-ashyolar, yarim tayyor mahsulotlar, kimyo sanoati korxonalaridagi reagentlar, tayyor mahsulotlar, sotish uchun mo'ljallangan tovarlar, tugallanmagan ishlab chiqarish hamda qayta ishlashga mo'ljallangan kimyoviy chiqindilardan iborat".



S.Tashnazarovning fikricha “milliy standartimizda tovar-moddiy zaxiralarga berilgan ta’rifda “....ma’muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish” degan jumlaning olib tashlash kerak, deb o’ylaymiz, chunki bu jumlarlar uzoq muddatda foydalanadigan moddiy aktivlarning ta’rifida ham keltirilgan”.

M..Xaydarov “tovar-moddiy zaxiralarga tashkilotga tegishli bo’lgan va xizmat qilish muddati bir yildan ortiq bo’lmagan yoki bir operatsion sikl mobaynida foydalaniladigan mol-mulklar kiritiladi”, degan xulosaga kelgan.

G.Priniotakis: “zaxiralar miqdorini to’g’ri belgilash ishlab chiqarish jarayoniga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Zaxiralar miqdorining ko’pligi tashkilot likvidligini pasaytiradi, aksincha zaxiralar miqdorining kamligi ishlab chiqarishning pasayishiga va foydaning kamayishiga olib keladi”.

Ta’kidlash kerakki, tovar-moddiy zaxiralar iqtisodiy mohiyati haqidagi fikrlarni umumlashtirishga ko’ra, aksariyat hollarda mualliflar milliy va xalqaro standartlarda taqdim etilgan ta’rifning an’anaviy ifodasiga rioya etganligini ko’rsatdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib M.Xaytboevning fikricha: “Tovar-moddiy zaxiralar ishlab chiqarish jarayonida iste’mol qilinadigan moddiy aktivlar hisoblanib, ularning qiymati tayyor mahsulotlar qiymatiga to’liq o’tkaziladi. Ular xarajatlar tarkibida eng katta ulushni egallaydi va moliyaviy natijalarga sezilarli ta’sir ko’rsatadi”.

Tovar-moddiy zaxiralar aktivlar tarkibida muhim o’rin egallaydi va o’ziga xos xususiyatlariga ega bo’lib, ularni aktiv sifatida tanolinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tovar moddiy zaxiralarning o’ziga xos xususiyatlari.

- Tovar moddiy zaxiralar aktiv sifatida tan olinadi;
- Tovar moddiy zaxiralar baholanadi;
- Tovar moddiy zaxiralar sotish uchun mo’ljallangan bo’ladi;
- Tovar moddiy zaxiralar ishlab chiqarish jarayonida bo’ladi;



- Tovar moddiy zaxiralar o'zining qiymatini boshqa bir mahsulot qiymatiga to'liq o'tkazadi.

Demak, xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, tovar-moddiy zaxiralar ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan iqtisodiy resurslar bo'lib, o'zining qiymatini boshqa bir mahsulot qiymatiga to'liq o'tkazadi, korxonalarning joriy aktivlari tarkibida deyarli salmoqli ulushga ega bo'ladi va korxonaning moliyaviy holatiga bahho berishda eng muhim ko'rsatkichlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ4611-sonli qaror. 2020 yil 24 fevral.
2. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonuni. O'RQ-677. 2021.27.05.
3. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni. O'RQ-404. 2016. 13.04.
4. Каримов А.А., Исломов Ф.Р., Авлокулов А.З. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. -Т: «Шарқ» НМАК. 2004.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158 son Farmonining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'zbekiston-2030 Strategiyasi".
6. "Zahiralar" 2-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti. Rasmiy tarjima. (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2022 yil 28 martdagi 39-sonli buyrug'i).
7. "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" 1-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti. Rasmiy tarjima. (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2022 yil 28 martdagi 39-sonli buyrug'i).
8. "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti. Rasmiy tarjima. (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2022 yil 28 martdagi 39-sonli buyrug'i).